

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

R.Arslonzoda, O.Maripov	
O'zbekiston Respublikasida davlat arxivlari faoliyatining takomillashib borishi	318
R.Urazova	
Avesto yashtlarida Mitraning sifatleri	325
N.Nizametdinov	
Markaziy Osiyoning Xitoy bilan aloqalari tarixi.....	331
I.Burxonov	
Asomiddin O'rinboev ilmiy merosida Abduxoliq G'ijduvoni tasavvufiy ta'limotiga oid ruq'alarning o'rganilishi.....	338
N.Jumaev	
XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoro vohasi dehqonchilik madaniyati tarixidan	342
D.Akramov	
Xalq maorifining nazariy asoslari.....	348

ADABIYOTSHUNOSLIK

G.Oripova	
Mustaqillik davri o'zbek lirikasida ritm va ohangdorlik.....	354
I.Baltayeva	
Adabiy vorisiylkning xorij adabiyotida o'rganilishi.....	359
F.Oxunjonova	
XIX asr oxiri va XX asr boshlarida zullisonaynlik an'anasi takomili (Nodim, Xilvatiy, xayratililar ijodi misolida)	362
D.Uralova	
Ulug'bek Hamdamning "Safar" hikoyasida ramziy obrazlar uyg'unligi.....	366
S.Begmatova	
Jahon adabiyotida distopik asar turlariga oid ilmiy-nazariy yondashuvlar	370
A.Yuldashev	
Alisher Navoiy asarlarida so'z tavsifi	374
O.Barziyev	
Farzand taqdiriga murojaat yoki ularga nasihat qilish mavzusiga oid an'anaviy poetik turkumlar	382
D.Sultonova	
Badiiy kriminal asarlar va ularning o'ziga xos xususiyatlari.....	387
S.Alibekova	
O'tkir Hoshimovning hajviy xarakter yaratish mahorati	392
Sh.Sherg'oziyev	
"Boburnoma" matnida foydalanilgan saj'i mutarrafnig ingliz tili tarjimalarida aks ettirilishi	396
X.To'raxonova	
Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonida badiiy tasviriy vositalarning qo'llanilishi	400
D.Hazratkuliyon	
Hozirgi O'zbekiston tojik she'riyatida bediliy uslub an'analariga izdoshlik (Ja'far Muhammad Termiziy she'ri misolida)	403
M.Narziqulov	
Tojik adabiyotida g'azalning mundariyasi va shakli o'zgarishi	410
M.Mirzoyev	
Farzona Xo'jandiy she'rlarida mifologik personajlar badiiy ifodasining xususiyatlari	420

TILSHUNOSLIK

Z.Alimova	
Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" asaridagi ayrim forscha qo'shma so'zlarning leksik-semantik xususiyatlari haqida	425
O.Nazirova	

JAHON ADABIYOTIDA DISTOPIK ASAR TURLARIGA OID ILMIY-NAZARIY
YONDASHUVLARНАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ВИДАМ ДИСТОПИЧЕСКИХ
ПРОИЗВЕДЕНИЙ В МИРОВОЙ ЛИТЕРАТУРЕSCIENTIFIC AND THEORETICAL APPROACHES TO THE TYPES OF DYSTOPIAN
NOVELS IN THE WORLD LITERATUREBegmatova Sohiba Mustafoyevna¹¹Begmatova Sohiba Mustafoyevna– O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti,
mustaqil tadqiqotchi**Annotatsiya**

Maqola adabiyotshunoslikda yangi janr sanalgan, adabiyotshunoslar va munaqqidlar o‘rtasida yetarlicha bahs-munozaralarga sabab bo‘lib kelayotgan distopiya atamasining paydo bo‘lishi, tasnifi va uning rivojlanish masalalariga bag‘ishlanadi. Ilmda distopiya va antiutopiya atamalarining qo‘llanish o‘rni, ularning bir-biridan farqlanish jihatlari ham atroflicha muhokama qilingan. Jahon adabiyotshunoslarining distopiya va distopik asar xususidagi ilmiy-nazariy fikrlari maqolada o‘z aksini topgan. Distopiyaning rivojlanishi va uning hozirgi adabiyotshunoslikdagi o‘rni haqida maqola muallifi tomonidan ilmiy-nazariy munosabat bildirilgan.

Аннотация

Статья посвящена возникновению, классификации и развитию термина дистопия, который считается новым жанром в литературоведении и вызвал значительные споры среди литературоведов и критиков. Подробно рассмотрено использование терминов дистопия и антиутопия в науке, а также их различия. В статье отражены научно-теоретические взгляды мировых писателей на дистопию и антиутопическое произведение. Автор статьи выразил научно-теоретическое отношение к развитию дистопии и ее месту в современном литературоведении.

Abstract

The article is devoted to the emergence, classification and development of the term "dystopia", which is considered a new genre in literary criticism and has caused considerable controversy among literary scholars and critics. The use of the terms dystopia and anti-utopia in science, as well as their differences are considered in detail. The article reflects the scientific and theoretical views of world writers on dystopia and anti-utopian work. The author of the article expressed a scientific-theoretical attitude about the development of dystopia and its place in contemporary literary studies.

Kalit so‘zlar: Distopiya, antiutopiya, utopiya, utopik tafakkur, distopik roman, ingliz adabiyoti, XX asr adabiy jarayonlari, ogohlantirish romani.

Ключевые слова: Дистопия, антиутопия, утопия, утопическое мышление, роман-дистопия, английская литература, литературные процессы XX века, роман-предупреждение.

Key words: Dystopia, anti-utopia, utopia, utopian thinking, dystopian novel, English literature, literary processes of the 20th century, cautionary novel.

KIRISH

Zamonaviy adabiyotshunoslikda adabiy yo‘nalishlar takomillashib, ularning ommalashib borishi natijasida turli janrdagi asarlar yaratilishiga sabab bo‘lmoqda. Qolaversa fan va texnikaning shiddat bilan rivojlanishi, globallashuv jarayonlari adabiyotga yangi kayfiyat bag‘ishladi. Jahon adabiyotida, xususan ingliz adabiyoti namoyondalari favqulodda o‘z kitobxonlarini yangicha uslublar va o‘zgacha noodatiy mavzular bilan siylashdi. Bu esa yaratilayotgan asarlarni yangicha yondashuvlar asosida baholashga keng imkoniyatlar eshigini ochadi. Asarlarning janr va yozilish uslubi, ularning tahlili va talqini yuzasidan ilmda ko‘plab tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Jahon adabiyotida zamonaviy yo‘nalish sifatida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan distopik asarlar bugungi kunda o‘zining ko‘plab kitobxonlariga egaligi bilan e‘tiborga molikdir. Biroq, shuni ta’kidlash lozimki, adabiyotshunoslikda distopiya atamasining qo‘llanilishi, uning janr sifatida vujudga kelishi va qanday ma’no-mazmun kasb etishi borasida turli ilmiy-nazariy fikrlar mavjud.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

XX asrning ikkinchi yarmida distopiya elementlari mavjud badiiy asarlar ko‘paya bordi. Distopiya yo‘nalishida juda ko‘plab asarlar yaratilgan bo‘lsa ham, ushbu fenomen ba’zi adabiyotshunos olimlar

ADABIYOTSHUNOSLIK

uchun yangilik sifatida qolmoqda. Adabiyotshunoslikda uning maxsus ilmiy atama sifatida tan olinishi va turli-xil ilmiy tadqiqotlarga jalb etilishi, asosan o'tgan asrning oxiri va yangi asrning boshlarida yuz berayotgan globalashuv jarayoni, ilm-fanning beqaror rivojlanishi bilan uzviy bog'liqdir. Distopiya janri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi, inchunki uning yordamida distopik asar mualliflari jamiyatning eng muhim muammolarini ochib berishadi va kelajakda ro'y berishi mumkin bo'lgan falokatlar, ularning salbiy oqibatlaridan ogohlantiradilar. Jamiyatda mavjud, yoki bo'lishi mumkin bo'lgan muammolar orqali boshqalarga o'ziga hos ogohlantiruvchi belgi beriladi. Ko'pincha chuqur falsafiy, psixologik ma'nolar bilan yo'g'rilgan distopik asarlar kitobxonlarni hayot haqida fikrlarini qayta o'ylab ko'rishga va voqealarni reallik bilan taqqoslashga undaydi. Shunday ekan, distopiya janrida yaratilgan asarlarni zamonaviy ilmiy-nazariy yondashuvlar asosida tadqiq etish tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Dunyo adabiyotshunosligida, xususan ingliz adabiyotida ham distopik asarlar yaratilishiga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Distopik asarlar XX asrning keng tarqalgan adabiy janrlaridan bo'lib kelmoqda. Distopik romanlar nafaqat badiiy o'ziga xosligi bilan o'quvchilarida chuqur taassurot qoldiradi, balki ularni tarbiyalashi va o'zlari yashayotgan jamiyat, olam haqida o'ylashga majbur qilish xususiyati bilan ham boshqa janrlardan ajralib turadi. Distopik romanlarning aksariyati urushlar, hokimiyatni suiiste'mol qilish, zulm, kuchli ijtimoiy tabaqalanish va pessimizm davrlarida yozilgan.

"Distopiya" so'zi ilk bor Jon Styuart Mill (1806-1873) tomonidan 1868 yilda Irlandiya davlati haqidagi siyosiy nutqida qo'llanilgan bo'lib, so'z "utopiya" atamasidan farqli ravishda ishlatilgan. O'z nutqida Jon Styuart Mill hukumatning Irlandiya mulkiga oid siyosatini tanqid ostiga oladi va, "umuman utopiya deb ataladigan g'oya amalga oshirib bo'lmaydigan darajada afzal; lekin ular (hukumat) qo'llab-quvvatlayotgan jarayon amalga oshirish uchun juda yomondir"[1] deya o'z nutqida distopiya so'zini ishlatadi. Bundan ma'lumki, Jon Styuart Mill "distopiya" so'zini "utopiya" tushunchasiga qarama-qarshi qo'yish uchun bu so'zni o'ylab topib, uning asosiy tushunchasini chegaralaydi. Mazkur nutqqa asoslanib, Oksford inglizcha lug'ati "distopiya"ni "hamin qadar yomon bo'lgan joy yoki holat"[2], deb ta'rif beradi. Zamonaviy adabiyotda "distopiya" terminini keng muhokama va bahslarga sabab bo'layotgan janrlar sirasiga kiritish mumkin. Muhokamalar natijasida adabiyotshunoslar va tadqiqotchilar distopiya janrining paydo bo'lishi, rivojlanishi va taraqqiyot bosqichlari borasida turli-xil ilmiy qarashlarni bayon etishgan. Tarixiy kategoriya sifatida adabiy janrlar sistemasi muttasil harakatda yashaydi: yangi janrlar vujudga keladi, takomillashadi, iste'moldan chiqadi; har bir alohida janrda ham muttasil sifat o'zgarishlari kuzatiladi, badiiy ijod amaliyoti uning shakli va mazmuniy xususiyatlariga muttasil o'zgartirishlar kiritib boradi[3]. Davr, jamiyat, insonlar turmush tarzining o'zgarib borishi adabiyotga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Bunday o'zgarishlar yangi adabiy janr va yo'nalishlarni paydo bo'lishiga xizmat qiladi. Zero, adabiyot inson va uning ruhiyatini badiiy tasvir bo'yoqlari bilan chizishga kirishar ekan, olamda yuz berayotgan o'zgarishlar bu jarayonga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi.

Distopiya janri XX asrning ikkinchi yarmidan shakllana bordi. Bu janr rivojiga katta hissa qo'shgan va tom ma'nodagi dastlabki barcha kriteriyalarga mos distopik asarni yarata olgan adib rus yozuvchisi Yevgeniy Zamyatindir. Adibning "Biz" [4] asarini adabiyotshunoslar distopik asar deb hisoblaydilar. Y. Zamyatin asarida totalitar boshqaruv hukm suradi va odamlar tizimning shunchaki "murvatlariga" aylanadi. Dastlab, ayni shu asarda yoritib berilgan jamiyat ongining manipulyatsiya qilinishi, barcha odamlarning hukumat doiralari tomonidan kuzatilishi, hissiyotlarga qo'yilgan taqiq va sun'iy oziq-ovqatlar kabi elementlar keyinchalik barcha klassik distopik asarlar tarkibida uchray boshladi.

"Distopiya" atamasining mazmun-mohiyatini ochib berishda ilmda shu vaqtgacha ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ilmiy-izlanishlar natijasi o'laroq adabiyotda "distopiya" atamasiga oid turli-xil ilmiy-nazariy qarashlar va yondashuvlar paydo bo'ldi. Biz ham an'anadan chekinmagan holda distopiya atamasining rivojlanish bosqichlarini tahlil ostiga olamiz. Tadqiqotimiz davomida bizni chuqur mulohazaga chorlagan va mushohada etishga undagan holat shu bo'ldiki, ilmda "distopiya" va "antiutopiya" atamalariga yondashuvlarning har-xilligi va qat'iy ilmiy-nazariy to'xtamga kelinmaganligidir.

Rus adabiyotshunosi A. Smirnov "antiutopiya" atamasi ilmiy sohada XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab faol qo'llanila boshlanganini ta'kidlaydi. Parallel ravishda ilmiy-tanqidiy adabiyotlarda "distopiya", "teoditiya", "kakotopiya", "roman-ogohlantirish", "salbiy utopiya" tushunchalari sinonim-ekvivalent yoki yaqin ma'no sifatida ishlatiladi[5]. Ushbu terminologik nomutanosiblik, birinchi navbatda, "distopiya" atamasi uchun umumiy qabul qilingan yagona ta'rifning yo'qligini, shuningdek, tadqiqotchilar ushbu adabiy hodisaning kelib chiqishi bo'yicha hali ham bir fikrga kela olmaganligini anglatadi. Distopiyani o'rganish o'tgan asrning 60-yillarida boshlanadi, ammo ilmiy tahlil ob'yekti sifatida u asosan faylasuflar va jamiyatshunoslar (sotsiologlar)ning e'tiborini tortdi. Ularning fikricha distopiya utopik tafakkur hodisasining ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. A. Smirnovning ta'kidlashicha, distopiya genezisi

muammosiga oid aksariyat asarlari ma'lum bir mafkuraviy tarafkashlikni yoqlaydi. Mazkur asarlarda distopiya mavjud bo'lib, u utopiyaning kichik janri sifatida ko'rsatiladi[6]. A. Smirnov fikridan shu anglashilindiki, distopiyaning o'zi alohida janr emas, balki utopiya asnosida paydo bo'lgan, uning-mazmun mohiyatini saqlab qolgan kichik bir janrdir.

Adabiyotshunoslar E.Batalov, B.Lanin, G.Morsonlarga ko'ra, antiutopiyaning mohiyati utopiyaning tubdan inkor etish, uning nafaqat utopik tafakkurini obro'sizlantirish, balki adabiyotdagi utopik an'analar bilan polemika va ijtimoiy ideal muammosiga ta'sir qiluvchi o'ziga xos loyihadir[7]. B. Laninning "Adabiy utopiyaning anatomiyasi" maqolasida antiutopiyada utopik niyatli nizo borligi, ya'ni utopiya va antiutopiya bir-biriga qarama-qarshi, antiutopiyalarda utopik tushunchalar va g'oyalarga taqlid allaqachon mavjud[8] ekanligi ta'kidlanadi. Lanin "Distopiya" atamasini umuman e'tibor markaziga olmaydi va uni inkor qiladi.

Amerikalik adabiyotshunos olim Uorren Vagar[9] "Oxirat adabiyotining yakuniy ko'rinishi" asarida utopiya va distopiyaning bir-biriga qarama-qarshi qo'yadi va ikkinchisi XIX asr oxirida, 1890-1914-yillarda, psixologik iqlim o'zgarganda paydo bo'lgan deb hisoblaydi, jamiyatning kelajagi haqida insonlarning tashvishlarini tasvirlaydi. Biroq, Vagar alohida janr toifasini belgilash uchun "antiutopiya" tushunchasidan foydalanishdan voz kechadi .

Janrlar o'rtasidagi tafovutlar bo'yicha fanda haligacha bir fikrga erishilmagan, ba'zi olimlar esa distopiya va antiutopiya atamalarini birlashtirishga intilishadi[10]. Ilmda mazkur atamalarni birlashtirish tarafdorlari ham, ularning aniq farqlanishi ham bahs-munozaralarni keltirib chiqardi. Jumladan, adabiyotshunos olim V. Chalikova "antiutopiya" janrini "distopiya" dan ajratib ko'rsatadi va ular orasidagi tafovutni ilmiy-nazariy dalillaydi. Chalikovaning fikricha, "distopiya – bu hali ham mavjud bo'lmagan, lekin kelajakda sodir bo'lish ehtimoli yuqori ijtimoiy yovuzlikning obrazi: tizim, barcha ortiqcha va qarama-qarshiliklarni olib tashlaydigan mantiqiy konstruksiyadir. Distopiya romanlarida yovuzlik ijtimoiy, dunyoviy va shaxsiy xususiyat sifatida namoyon bo'ladi[11]". Olimaning tadqiqotida distopiya utopik g'oyalarning barbod bo'lishining oshkora xususiyati deya ta'riflanadi.

Adabiyotshunos olim va munaqqid G. Morson o'z distopiya xususidagi tadqiqotlaridan birida, "Muallif yaqinlashib kelayotgan jannat haqidagi afsonani shaxsga dushmanlik (antiutopiya) deb qoralayaptimi yoki kelajakda sodir bo'lishi bashorat qilingan va kuchaygan bugungi do'zaxni qoralayaptimi (distopiya)?"[12], degan savol bilan ikkalasi o'rtasidagi farqni izohlaydi. Tadqiqotimiz davomida shunga amin bo'ldikki, G. Morsonning ilmiy-nazariy mushohadalarida antiutopiya va distopiya atamalariga qisqa, lekin aniq ta'rif berilgan. Olimning fikridan, antiutopiya –bu hayoliy, afsonaviy, qabohatga, razohatga to'la olam tasviri, distopiya esa mana shu olamning aynan mavjud shaklining badiiy adabiyotda zuhurlanishidir, degan ma'noni anglash qiyin emas.

Ba'zi olimlar distopiya salohiyatini "ogohlantirishni o'z ichiga olgan hozirgi paytdan "ekstrapolyatsiya " sifatida ta'kidlab, "tanlash va shuning uchun umid qilish hali ham mumkin," ,degan ma'noni anglatadi degan fikrni ilgari surishadi.

G'arb adabiyotshunoslari Buker[13] va Moylanlar[13] ham janrlar o'rtasida chegara chizig'ini chizishni afzal ko'rishadi. Ular o'z ilmiy asarlarida antiutopiya va distopiya alohida, boshqa-boshqa guruhga mansub ekanligini ta'kidlashadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bizning diqqatimizni eng ko'p antiutopiya va distopiya janrlarini farqlay bilish zarurligini ta'kidlagan rus adabiyotshunosi Artur Didrovning fikrlari o'ziga jalb qildi. "Antiutopiya va distopiya o'rtasida biz ahamiyat berishimiz lozim bo'lgan jihat bor ,ya'ni antiutopiya — utopiya yoki o'ziga xos utopik loyihani tanqid qilishni o'z ichiga olgan janr, distopiya esa bema'nilik darajasiga olib keladigan, salbiy o'ziga xos xususiyatlarga ega jamiyat modelini yaratadi" , deydi olim o'z tadqiqotida.

Grek adabiyotshunos olimi Antonius Balasapous tadqiqot ishida antiutopiya va distopiyalarning o'ziga xos kengaytirilgan tasnifini ilgari suradi. Olim ularning o'xshash va farqli tomonlarini ko'rsatadi, hamda adabiy materiallar bilan ilmiy kuzatishlari asosida har bir janr xilma-xilligining o'ziga xos xususiyatlarini tavsiflaydi. Antiutopiya va distopiyaning syujet, hikoya qilish, fazoviy xususiyatlarini ajratib ko'rsatadi [14]. Antonius Balasapous distopiyalarni quyidagi asoslarga ko'ra ajratadi: "a) ular utopik impulsni to'liq rad etishni taxmin qilmaydi va keltirib chiqarmaydi; b) ularning tanqidiy mulohazalari qat'iy sub'yektivdir, ya'ni ular maxsus qo'yilgan sub'yekt pozitsiyasidan kelib chiqqan holda aniq belgilangan ; c) ular bahslashuvchi emas, asosan hikoya qiluvchi ; d) ularning yo'nalishi siyosiy va mafkuraviy jihatdan noaniqdir..."[15] . Tadqiqotimiz natijasi o'laroq shunga amin bo'ldikki, zamonaviy adabiyotshunoslarning distopiya atamasi xususidagi ilmiy fikr-mulohazalari orasida Antonius Balasapousning ilmiy-nazariy dalillangan adabiy qarashlari ancha teran va ishonchlidir. Olim o'z

ADABIYOTSHUNOSLIK

tadqiqotida distopik va antiutopik asarlarni o'z mazmun-mohiyatiga va xususiyatiga ko'ra guruhlariga bo'ladi va ilmiy dalillaydi.

Tadqiqotlardan shu narsa anglashiniladiki, "distopiya" va "antiutopiya" tushunchalari o'rtasidagi terminologik farq masalasi adabiyotshunoslar o'rtasida bahs-munozara mavzusi bo'lib qolmoqda. Ayni paytda, adabiy muhitda "distopiya" va "antiutopiya" atamalarini sinonim sifatida qo'llash mumkin bo'lgan yoki ularning aniq farqlanishi bo'yicha umumiy fikr mavjud emas.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, "antiutopiya" va "distopiya" tushunchalarini bir-biridan farqlash maqsadga muvofiqroq bo'ladi. O'zbek va rus tillaridagi "antiutopiya" atamasini rad etish adabiyotshunoslar uchun imkonsizdek tuyuladi. Chunki "antiutopiya" atamasi o'zbek va rus tillarida "distopiya" atamasidan ancha uzoqroq vaqtdan beri amalda qo'llanilmoqda.

Atamalarning quyidagi farqlovchi ta'riflarini taklif qilamiz. Antiutopiya — bu parodiya, masxara yoki utopik g'oyalarni buzish, ularning amalga oshirib bo'lmaydiganligi va muvaffaqiyatizligining ko'rsatuvchi janr bo'lib, u xayoliy dunyoni tasvirllovchi janrdir. Distopiya esa falokat elementi (muqarrar tugash hissi) mavjud bo'lgan dahshatli va oqibati ayanchli jarayonlarning real olamdagi tasviridir. Distopik asarlarda ommaviy qashshoqlik, jamoatchilikning hukumatga ishonchsizligi va shubha, totalitar davlat yoki zulmga to'la jamiyat tasviri, tibbiyot yoki fan-texnika yutuqlaridan ahloqsizlik darajasida noto'g'ri foydalanish, aksariyat hollarda fan-texnikaning beqaror rivojlanishi va uning ayanchli oqibatlari kabi mavzular g'aydalanadi. Distopik asarlar mualliflari voqealar nima uchun bunday tus olganini kamida bitta sababini o'rganadilar. Yozuvchilar haqiqiy dunyodagi mavjud masalalarga o'xshash voqealarni badiiylilik mezonlari asnosida tasvirlaydilar. Voqealar sodir bo'lgan yoki yaqin kelajakda sodir bo'ladi. Distopiyalar odatda zamonaviy jamiyatning elementlarini ekstrapolyatsiya qiladi va shuning uchun siyosiy ogohlantirish sifatida ham o'qilishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Kuronov D. Adabiyotshunoslik lo'g'ati.-Toshkent, 2013.- 99- b. (Kuronov D. Literary Dictionary. - Tashkent, 2013. - p. 99.)
2. Баталов Э.Я. В мире утопии: Пять диалогов об утопии, утопическом сознании и утопических экспериментах. М.: Политиздат, 1989 г. (Batalov E.Ya. In the world of utopia: Five dialogues about utopia, utopian consciousness and utopian experiments. Moscow: Politizdat, 1989.)
3. Дидров А.А. Человек будущего в утопиях и дистопиях (философско-антропологическая интерпретация): автореф. дис.. кандидата философских наук: 09.00.13, 2011. (Didrov A.A. Man of the future in utopias and dystopias (philosophical and anthropological interpretation): author. dis. candidate of philosophical sciences: 09.00.13, 2011.)
4. Замятин Е. "Мы". Нью-Йорк, США.Изд.им. Чехова, 1952. (Zamyatin E. "We". New York, USA. Chekhov publishing house, 1952.)
5. Ланин Б. Анатомия литературной антиутопии. Общественные науки и современность, № 5,1993. с. 154 – 163. (Lanin B. Anatomy of literary anti-utopia. Social Sciences and Modernity, No. 5,1993. 154 – 163 pp.)
6. Морсон Г. Границы жанра. Антиутопия как пародийный жанр. Москва, Прогресс, «Утопия и утопическое мышление».1991. (Morson G. The boundaries of the genre. Dystopia as a parody genre. Moscow, Progress, "Utopia and anti-utopian thinking". 1991.)
7. Чаликова В. Утопический роман: жанровый и автобиографические источники современных антиутопий и дистопий. Москва, Социокультурные утопии XX века.1985. (Chalikova V. Utopian novel: genre and autobiographical sources of modern anti-utopias and dystopias. Moscow, Socio-cultural utopias of the XX century. 1985.)
8. Balasopoulos A. Anti-Utopia and Dystopia: Rethinking the Generic Field. «Utopia Project Archive», 2011.p. 59 – 67.
9. Booker K.M. The Dystopian Impulse in Modern Literature: Fiction as Social Criticism. Westport, CT: Greenwood.1994.
10. Hoda Z.M. Utopia, Dystopia, and Ideology in the Science Fiction of Octavia Butler. Science Fiction Studies, 17, (2). Science Fiction by Women, 1990, P.-51.
11. Moylan Th. Scraps of the Untainted Sky: Science Fiction, Utopia, Dystopia. New York: Routledge.,2000.
12. Mill J.S. "Volume XXVIII – Public and Parliamentary Speeches Part November1850 – November 1868 [1850]," in Public and parliamentary speeches - Part I - November 1850 - November 1868, ed. Bruce L. Kinzer and John L. Robson (Toronto: University of Toronto Press)
13. Moylan Th. Scraps of the Untainted Sky: Science Fiction, Utopia, Dystopia. New York: Routledge., 2000.